



INTER EDUCATION

&

GLOBAL STUDY

INSPIRATION FOR
THE
MODERN
RESEARCHER

2025
VOL.3. №5(1)

Ilmiy-nazariy va metodik jurnal
Научно-теоретический и
методический журнал
Scientific-theoretical and
methodological journal



2992-9024

ISSN

2025. VOLUME 3

ISSUE 5(1)

ISSN 2992-9024

INTER EDUCATION & GLOBAL STUDY

Ilmiy-nazariy va metodik jurnal
2025-yil, 3-tom, 5-son

BUXORO – 2025

	shakllantirishning zamonaviy talablari va metodik yondashuvlari.	
M.B. Maxkamova.	Bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchilarida ekologik madaniyatni rivojlantirish.	152–157
N.S. Mirzayeva.	Talabalarni kasbiy muvaffaqiyatiga erishishda ingliz tilidagi yozish ko'nikmalarini oshirishning ahamiyati.	158–165
S.A. Mo'minov.	Yaponida inklyuziv ta'limdan inklyuziv jamiyatga o'tishda pedagoglarning faoliyati hamda maktab direktorlarining innovatsion boshqaruv salohiyatini takomillashtirish.	166–176
Sh.N. Muslimov.	Integratsiyaviy yondashuv asosida bo'lajak texnologik ta'lim o'qituvchilarining kasbiy-grafik kompetentligini shaxsga yo'naltirilgan ta'lim texnologiyalari va metodlarini qo'llash orqali rivojlantirish.	177–184
N.U. Mustafayeva.	Pragmatik kompetentligini takomillashtirishda blum taksonomiyasini integratsiya qilishda ta'lim mazmuni.	185–190
Z.A. Namazov.	Yosh futbolchilarni tarbiyalashda sport pedagogikasining zamonaviy yondoshuvlari.	191–198
N. Abidova, Sh.I. Mirtoyeva.	Duduqlanuvchi bolalarda verbal muloqot ko'nikmalarini rivojlantirish.	199–204
X.B. Nurbayev, J.E. Eshdavlatov.	Ta'lim samaradorligini oshirish xususiyatlari.	205–212
M.O. Nurmatova, D.N. Abdullayeva.	Bo'lajak o'qituvchilarning kasbiy faoliyatida o'qituvchilik maxoratning tutgan o'rni va ahamiyati.	213–218
O'R. Odiljonov, S.A. Mo'minov.	Umumta'lim muassasalarida alohida ta'lim ehtiyojlari bo'lgan bolalar uchun qulay muhit yaratish.	219–226
R.I. Temirov.	Turkiston jadidchilik maktablari o'qitish tizimi.	227–233
M.M. Raximberdiyeva.	Xalq pedagogikasi fanini modulli texnologiyalari asosida o'qitishning shart-sharoitlari.	234–239
N.Z. Raxmonova.	Koxlear implantli maktabgacha yoshdagi bolalarning komunikativ ko'nikmalarini rivojlantirishning shart-sharoitlari.	240–245
M.Sh. Salixova, S.I. Usmanaliyeva.	Ta'lim jarayonida sun'iy intellekt texnologiyalaridan foydalanish: dolzarbligi, ahamiyati.	246–253
Z.I. Sanakulov.	Badiiy nomlar vositasida talabalar lingvistik kompetensiyalarni rivojlantirishda yondashuvlar.	254–262
Sh.M. Xudaykulova.	Axloqiy tarbiya va neyropedagogik yondashuvning o'zaro valentli bog'liqligi.	263–270
Sh.K. Tojiboyeva.	Darsdan tashqari tadbirlar orqali tanqidiy fikrlash kompetentligini rivojlantirish metodikasi.	271–277
Sh.M. Tuxtayeva.	Boshlang'ich sinf o'quvchilariga matematik matnli masalalarni o'rgatishda innovatsion texnologiyalardan foydalanish.	278–283
M.A. Umarova, Z.N. Mamarajabova.	Badiiy adabiyot vositasida nutqida nuqsoni bo'lgan maktabgacha yoshdagi bolalarda dialogik nutq shakllarni shakllantirish.	284–288

Original paper

BADIIY NOMLAR VOSITASIDA TALABALAR LINGVISTIK KOMPETENSIYALARNI RIVOJLANTIRISHDA YONDASHUVLAR



© Z.I. Sanakulov¹✉

¹Chirchiq davlat pedagogika universiteti, Chirchiq, O'zbekiston

Annotatsiya

KIRISH: ushbu maqolada badiiy onomastik birliklar asosida talabalar lingvistik kompetensiyasini rivojlantirishda qo'llanilayotgan pedagogik yondashuvlar tahlil qilinadi. CEFR mezonlariga tayangan holda lingvistik kompetensiyani zamonaviy o'qitish tamoyillari bilan uyg'unlashtirish zarurligi asoslab beriladi.

MAQSAD: LINGVOMADANIY, kognitiv, interfaol va kontekstual yondashuvlar orqali badiiy onomastik birliklar yordamida talabalar lingvistik kompetensiyasini samarali rivojlantirish imkoniyatlarini ilmiy asoslashdir.

MATERIALLAR VA METODLAR: tadqiqotda CEFR, Vygotsky, Kramsch, Ter-Minasova, Dewey, Wierzbicka kabi mutaxassislarning ishlariga asoslangan holda taqqoslash, kontent-tahlil, empirik kuzatuv va kontekstual tahlil metodlari qo'llanildi.

MUHOKAMA VA NATIJALAR: tahlillar shuni ko'rsatadiki, badiiy onomastik birliklar madaniyat, til tizimi va tafakkur jarayonlari bilan bevosita bog'liq bo'lib, talabalarda lingvistik bilimni chuqurlashtirishda samarali vosita hisoblanadi. Onomastik birliklarning madaniy semantikasi, interfaol ishlanmasi va kontekstual taqdimoti orqali til o'rganish yanada ong'li va barqaror bo'lishi ta'minlanadi.

XULOSA: badiiy nomlar vositasida lingvistik kompetensiyani rivojlantirishda qat'iy metod emas, balki lingvistik kompetensiyaga qaratilgan didaktik tamoyillarning uyg'un qo'llanishi samaradorlikni ta'minlaydi. Ushbu yondashuvlar til o'rganishda individual yondashuv, madaniy integratsiya va tafakkurni rivojlantirishga xizmat qiladi.

Kalit so'zlar: badiiy onomastika, lingvistik kompetensiya, lingvomadaniy tamoyil, kognitiv tamoyil, interfaol ta'lim, kontekstual o'qitish, pedagogik yondashuvlar, kommunikativ qobiliyatlar, madaniyatshunoslik, o'quv jarayoni.

Iqtibos uchun: Sanakulov Z. I. Badiiy nomlar vositasida talabalar lingvistik kompetensiyalarni rivojlantirishda yondashuvlari.// Inter education & global study. 2025. Vol.3. №5(1). B.254–262.

ПОДХОДЫ К РАЗВИТИЮ ЯЗЫКОВЫХ КОМПЕТЕНЦИЙ У УЧАЩИХСЯ С ПОМОЩЬЮ ХУДОЖЕСТВЕННЫХ НАЗВАНИЙ

© З.И. Санакулов¹✉

¹Чирчикский государственный педагогический университет, Чирчик, Узбекистан



Аннотация

ВВЕДЕНИЕ: в статье рассматриваются педагогические подходы к развитию лингвистической компетенции студентов на основе художественных ономастических единиц. Подчеркивается значимость соответствия этим подходам международным стандартам CEFR и современным требованиям образования.

ЦЕЛЬ: научное обоснование эффективности использования лингвокультурного, когнитивного, интерактивного и контекстуального подходов к развитию лингвистических компетенций студентов посредством анализа художественных имен.

МАТЕРИАЛЫ И МЕТОДЫ: в исследовании использованы методы сравнительного и контент-анализа, эмпирического наблюдения и контекстуального изучения. В качестве теоретической базы использованы работы специалистов — Vygotsky, Kramsch, Ter-Minasova, Dewey, Wierzbicka.

ОБСУЖДЕНИЕ И РЕЗУЛЬТАТЫ: анализ показал, что художественные ономастические единицы играют важную роль в развитии лингвистического мышления, культурной осведомленности и коммуникативных способностей. Их использование в интерактивной и контекстной форме способствует более глубокому и устойчивому овладению языком.

ЗАКЛЮЧЕНИЕ: эффективное развитие лингвистических компетенций требует не жесткой методологии, а гибкого применения дидактических принципов. Рассмотренные подходы способствуют индивидуализации обучения, развитию критического мышления и формированию межкультурной компетенции.

Ключевые слова: художественная ономастика, лингвистическая компетенция, лингвокультурный подход, когнитивный подход, интерактивное обучение, контекстное обучение, педагогические подходы, коммуникативные навыки, культурология, учебный процесс.

Для цитирования: Санакулов З.И. Подходы к развитию языковых компетенций у учащихся с помощью художественных названий. // Inter education & global study. 2025. Vol.3. №5(1). С. 254–262. 254–262. 254–262. 254–262.

APPROACHES TO DEVELOPING LINGUISTIC COMPETENCIES OF STUDENTS THROUGH LITERARY NAMES

© Zayniddin I. Sanaku¹✉

¹Chirchiq State Pedagogical University, Chirchiq, Uzbekistan

Annotation

INTRODUCTION: this article explores pedagogical approaches to developing students' linguistic competencies through literary onomastic units. It highlights the relevance of aligning these approaches with international standards like CEFR and contemporary educational practices.

AIM: the aim of the article is to scientifically substantiate the effectiveness of applying linguocultural, cognitive, interactive, and contextual teaching approaches to enhance linguistic competence through literary names.

MATERIALS AND METHODS: the study applies comparative analysis, content analysis, empirical observation, and contextual examination, drawing on the works of Vygotsky, Kramsch, Ter-Minasova, Dewey, and Wierzbicka.

DISCUSSION AND RESULTS: findings indicate that literary onomastic units serve as valuable tools in fostering linguistic knowledge, cultural awareness, and critical thinking. Their integration into interactive and context-rich learning environments supports deeper and more sustainable language acquisition.

CONCLUSION: developing linguistic competence through literary names is most effective when guided by flexible didactic principles rather than rigid methodologies. These approaches enhance student motivation, cognitive processing, and intercultural competence in language learning.

Keywords: literary onomastics, linguistic competence, linguocultural approach, cognitive approach, interactive teaching, contextual instruction, pedagogical strategies, communicative skills, cultural studies, educational process.

For citation: Zayniddin I. Sanaku. (2025) 'Approaches to developing linguistic competencies of students through literary names', Inter education & global study, vol.3. (5(1)), pp. 254–262. (In Uzbek).

Barchamizga ma'lumki, ta'lim tizimining samaradorligini ta'minlashda standartlar me'yoriy asos sanaladi. Jumladan, Davlat ta'lim standartlari (DTS) ta'lim jarayonida ta'lim oluvchilarning bilim, ko'nikma va kompetensiyalariga qo'yiladigan minimal talablarni belgilovchi me'yoriy hujjat hisoblanadi. O'z ta'lim yutuqlari bilan ajralib turuvchi Yevropa ta'limini o'rganadigan bo'lsak, Yevropa Kengashi tomonidan 2001-yilda ishlab chiqilgan Umumyevropa til kompetensiyalarini baholash standarti – nem. 'Der Gemeinsame Europäische Referenzrahmen für Sprachen (GER)', ing. Common European Framework of Reference for Languages (CEFR) ¹ – xorijiy tillarni o'rganish, o'qitish va baholash uchun umumiy standart bo'lib, u turli mamlakatlarda til bilish darajalarini bir xil mezon asosida belgilash imkonini beradi. Mazkur hujjatni batafsil o'rganish orqali uning xorijiy tillarni o'rganishda bir nechta muhim afzalliklarni taqdim etishi aniqlandi:

Umumiy standart va taqqoslash imkoniyati: CEFR barcha tillar uchun yagona mezonlar asosida baholash imkonini beradi. Masalan, nemis tilini o'rganuvchi bir shaxsning B1 darajasi fransuz yoki ingliz tilida ham xuddi shu darajaga mos keladi. Bu xalqaro miqyosda tillarni obyektiv taqqoslash va til bilish darajasini tan olish imkonini beradi.

¹ Ushbu hujjat manbalarda turlicha tarjima qilinishi kuzatildi. Mazkur variant bizning mualliflik tarjimamiz sanaladi. Q.
https://europass.europa.eu/de/what-common-european-framework-languages-cefr?utm_source=chatgpt.com

Tilni o'rganishning aniq yo'nalishi: CEFR tizimi chet til o'rganuvchilarga har bir bosqichda nimalarga erishishi kerakligini aniq ko'rsatib beradi.

Xalqaro sertifikatlar va tan olinishi: CEFR tizimi asosida Telc, Goethe-Zertifikat, IELTS, DELF, TOEFL, Cambridge English kabi xalqaro tan olingan sertifikatlar ishlab chiqilgan. Ushbu sertifikatlar dunyoning ko'plab universitetlari, ish beruvchilari va tashkilotlari tomonidan qabul qilinadi.

Ta'lim oluvchilar va ta'lim muassasalari uchun yondashuv: CEFR nafaqat chet til o'rganuvchilar, balki ta'lim oluvchilar va ta'lim muassasalari uchun ham samarali yondashuv bo'lib xizmat qiladi.

Demak, mazkur standart xorijiy tillarni o'rganishda muhim rol o'ynaydi, chunki u xalqaro darajadagi standart, shaffof va obyektiv baholash tizimi bo'lib xizmat qiladi. Bugungi kunda nemis, ingliz, fransuz, ispan, italyan kabi ko'plab tillarni o'rganishda CEFR asosiy mezonlardan biri hisoblanadi. O'zbek va xorijiy tillar standartlarini qiyosan o'rganganimizda ulardagi umumiy jihatlar ko'zga tashlanadi. Jumladan, "Uzluksiz ta'lim tizimining chet tillar bo'yicha davlat ta'lim standartini tasdiqlash to'g'risida"² gi qaror CEFRning bizning ta'lim tizimimizdagi anlogi desak adashmaymiz. Shuningdek, yangi qabul qilingan "Umumiy o'rta ta'limning davlat ta'lim standarti"³da ham har bir fan doirasida o'zlashtiriladigan fanlarni baholash mezonlarining ham kiritilishi, ushbu baholash tartibi (A1, A1+, A2, A2+, B1, B1+, B2, B2+, C1, C2 daraja) aynan Yevropa ta'lim tizimi CEFR baholash tizimiga mos kelishi diqqatga sazovordir.

Bugungi ta'lim tizimida talabalar lingvistik kompetensiyalarini rivojlantirishda turli yondashuvlar muhim ahamiyatga ega. Bular orasida lingvomadaniy tamoyil, kognitiv tamoyil, interfaol ta'lim tamoyili va kontekstual o'qitish tamoyilining o'rni beqiyos. Mazkur maqolada badiiy onomastik birliklar asosida talabalarning lingvistik kompetensiyasini rivojlantirishdagi yondashuvlar, shu jumladan, pedagogik aspektdagi yondashuvlar yoritiladi. Maqsadimiz – badiiy nomlar orqali talabalar lingvistik bilim va ko'nikmalarini qanday samarali tarzda rivojlantirishni ko'rsatish va bu jarayonni pedagogik jihatdan asoslashdir.

Ta'limga oid standartlarni o'rganar ekanmiz, tadqiqotimiz predmeti doirasidagi kompetensiya va lingvistik kompetensiya: ta'riflar va ularning o'zaro bog'liqligi tahlil etish maqsadga muvofiqdir. Ta'limga oid standartlarni o'rganar ekanmiz, tadqiqotimiz predmeti doirasida kompetensiya va uning tarkibiy qismlarini, ayniqsa lingvistik kompetensiya komponentlarini tahlil qilish maqsadga muvofiqdir. CEFRga ko'ra, kompetensiyalar shaxsning lisoniy harakatlarini amalga oshirishga imkon beruvchi deklarativ bilimlar, protsedural ko'nikmalar va shaxsiy kompetensiyalarning yig'indisidir. Bu ta'rif kompetensiyaning ko'p qirrali tabiatini ochib beradi.⁴

² O'zR VMning 2013-yildagi "Uzluksiz ta'lim tizimining chet tillar bo'yicha davlat ta'lim standartini tasdiqlash to'g'risida"gi 124-son qarori.

³ "Umumiy o'rta ta'limning davlat ta'lim standarti" O'zbekiston Respublikasi Xalq ta'limi vazirining 2021-yil 17- dekabrda 406-son buyrug'iga 1-ILOVA. https://drive.google.com/file/d/1PESxLJtLz4Nfid_KukzQh-FR5Fy7twPp/preview

⁴ Der Gemeinsame Europäische Referenzrahmen für Sprachen. Europarat, 2011. –S. 21.

Kompetensiya, o'z navbatida, o'rganilgan bilimlarni samarali qo'llay olishni anglatadi. Masalan, grammatik qoidalarining avtomatik qo'llanilishi yoki madaniyatdagi qadriyat va normalarga mos harakat qilish qobiliyati – bularning barchasi kompetensiyaning tarkibiy qismlaridir. Ushbu bilimlar ko'proq implitsit (bilvosita) va eksplitsit (aniq ifodalangan) shakllarda ifodalanishi mumkin. Misol uchun, tilning grammatik qoidalari haqidagi bilim eksplitsit bo'lsa, ma'lum bir jamiyatning odob-axloq normalariga mos harakat qilish qobiliyati ko'proq implitsit bo'lishi mumkin.

Xorijiy manbalarda "yordamchi kompetensiya"⁵ atamasi keng tarqalgan. Bu atama, asosan, til o'rganishda yordamchi funksiyalarni bajaradigan ko'nikmalarni anglatadi. Masalan, eshitilgan nutqdagi so'zlarni tez va avtomatik ravishda aniqlash qobiliyati bu turdagi kompetensiyalarga misol bo'la oladi. CEFRda yordamchi kompetensiyalar kommunikativ yoki lingvistik faoliyat turlari sifatida tavsiflanadi. Bu faoliyatlilar til vositasida muloqot qilishning turli shakllarini, jumladan, tinglash, o'qish, gapirish va yozishni o'z ichiga oladi.

Kompetensiyalarni quyidagi jihatlar asosida aniqlash mumkin: amalga oshish jarayoni bo'yicha: produktiv, reseptiv, interaktiv va til vositasida muloqot qilish; nutq shakli bo'yicha: og'zaki, yozma; idrok turi bo'yicha: audial (eshitish orqali qabul qilish), vizual (ko'rish orqali qabul qilish).

Bu tasniflash tizimi, til o'rganish jarayonida kompetensiyaning turli darajalarini yanada aniqroq tushunishga yordam beradi. Misol uchun, jamoa oldida ma'ruza qilish — bu og'zaki produktiv kompetensiyaning bir shaklidir, matnni o'qish esa vizual reseptiv kompetensiyaga misol bo'ladi.

Lingvistik kompetensiya haqida turli ta'riflar mavjud. Umumiy nuqtai nazardan, lingvistik kompetensiya – bu insonning til tizimi haqida chuqur bilimga ega bo'lishi va ushbu bilimlarni amaliyotda qo'llash qobiliyatidir. Lingvistik kompetensiyaning muvaffaqiyatli qo'llanilishi, til tizimining fonologik, morfologik, sintaktik va leksik jihatlarini egallash bilan birga, nutq faoliyatida ularni samarali foydalanishni ham talab qiladi.

Bizning ta'rifimiz, lingvistik kompetensiyaning til tizimi, nutq faoliyati va yangi kommunikativ vaziyatlarda bilimlarni qo'llash qobiliyatlarini o'z ichiga olgan mukammal va integratsiyalashgan shakl sifatida ko'radi. Bu ta'rif, o'z ichiga deklarativ bilim, protsedural ko'nikma va shaxsiy kompetensiyaning qamrab olgan holda, lingvistik tafakkur va tilga bo'lgan munosabatni rivojlantiradi.

Lingvistik kompetensiya ta'rifini aniqlashda, quyidagi asosiy jihatlar muhim:

Til tizimi va nutq faoliyatining uyg'unligi: Lingvistik kompetensiya til tizimi haqida bilimga ega bo'lishni, lekin ayni paytda bu bilimlarni amaliyotda qo'llay olishni ham talab qiladi.

Yangi kommunikativ vaziyatlarda til bilimlarini mustaqil qo'llash: Bu jihat kompetensiyaning amaliy qo'llanilishiga alohida e'tibor qaratadi.

⁵ Nemis tilli manbalarda ushbu tushuncha „Teilkompetenzen“ termini bilan ifodalanadi. Q. Grotjahn R., Kleppin K., Mohr I., & Ende K. DLL 6: Curriculare Vorgaben und Unterrichtsplanung. Klett Sprachen. 2014.

Til darajalarida bilimlarni amaliy qo'llash: Grammatik, leksik va sintaktik qoidalarni samarali qo'llay olish qobiliyati lingvistik kompetensiyani ajralmas qismidir.

Shuningdek, lingvistik kompetensiya nafaqat til tizimi, balki uning nutq faoliyatidagi qo'llanilishi hamda til o'rganishga bo'lgan motivatsiya va shaxsiy fazilatlarini o'z ichiga oladi.

Badiiy adabiyotlar orqali talabalarning lingvistik kompetensiyasini rivojlantirishning ahamiyati katta. O'qituvchining didaktik-metodik tamoyillarga asoslanishi, talabaning lingvistik kompetensiyasini samarali rivojlantirish uchun muhim omildir. Zamonaviy chet tilni o'qitish metodikasi aniq bir metodga asoslanmasdan, didaktik tamoyillarga e'tibor qaratadi. Ushbu tamoyillar o'quv jarayonida talabalarga metodik qarorlar qabul qilishda yo'nalish ko'rsatadi va ta'lim oluvchining individual xususiyatlarini hisobga olishni ta'minlaydi.

Umuman adabiyot ta'limi, qolaversa, badiiy adabiyot materiallaridan dars mashg'ulotlarida foydalanish orqali talabalarning lingvistik kompetensiyasini maqsadli rivojlantirish o'qituvchidan muayyan didaktik-metodik yondashuvlarga asoslanishni taqozo etadi.

Zamonaviy chet tillarni o'qitish metodikasi yoritilgan adabiyotlarda chet tillarni o'qitishda muayyan bir metod ustuvor hisoblanmayotgani haqidagi ma'lumotlar uchraydi. Xususan, zamonaviy chet til didaktikasida avvallari mavjud bo'lgan audiolingval metod yoki kommunikativ didaktika kabi didaktik-metodik umumiy konsepsiyalarning tarqalib ketishi haqida so'z yuritiladi. H.Funk ushbu yondashuvlarning yo'q bo'lishini ma'lum bir o'quv maqsadlariga faqat aniq bir metod orqali erishish mumkinligini tasdiqlovchi yetarli dalillar mavjud emasligi bilan asoslaydi.⁶ Shuningdek, har qanday metodik yondashuv barcha til o'rganuvchilar uchun bir xil natija berishini ham ilmiy jihatdan isbotlash qiyin. Shu sababli, bugungi kunda chet til o'qitishda qat'iy metodlardan emas, balki didaktik-metodik yondashuv-tamoyillar haqida so'z yuritiladi. Ushbu yondashuvlar ta'lim jarayonida ta'lim oluvchiga metodik qarorlar qabul qilishda yo'nalish ko'rsatadigan umumiy ko'rsatmalar sifatida xizmat qiladi.

Xorijiy tadqiqotlarni ko'zatganimizda aynan badiiy onomastik birliklar asosida talabalarning lingvistik kompetensiyasini rivojlantirishga qator yondashuvlar xizmat qilishining guvohi bo'lamiz.

Til o'rganish jarayonida lingvistik kompetensiyani rivojlantirishning muhim jihatlardan biri – badiiy matnlarda qo'llaniladigan onomastik birliklarni tahlil qilish orqali til tizimining madaniy, semantik va pragmatik jihatlari o'rganishdir. Tadqiqotlar shuni ko'rsatadiki, badiiy onomastik birliklar tilshunoslik, adabiyot va madaniyat o'rtasidagi bog'liqlikni ta'minlab, til o'rganish jarayonini boyitadi.⁷ Bunda talabalarning lingvistik

⁶ Funk H. Methodische Konzepte für den DaF-Unterricht. // Deutsch als Fremd- und Zweitsprache. Ein internationales Handbuch. Art. 104. – Berlin/Wien: De Gruyter. – S. 940-952.

⁷ Kramsch C. Language and Culture. Oxford University Press, 1993.; Wierzbicka A. Understanding Cultures Through Their Key Words: English, Russian, Polish, German, and Japanese. Oxford University Press, 1996.

kompetensiyasini rivojlantirishda muhim bo'lgan tamoyillar ilmiy nuqtayi nazardan yoritish maqsadga muvofiqdir.

Lingvomadaniy yondashuv tilni madaniyat bilan uzviy bog'liq holda o'rganish zarurligini nazarda tutadi. Har bir xalqning mifologiyasi, tarixiy tajribasi va mentaliteti onomastik birliklar orqali aks etadi. Badiiy adabiyotdagi joy nomlari, shaxsiy ismlar, tarixiy shaxslar va boshqa nomlash birliklari muayyan tilning madaniy kodlarini anglashga yordam berishi qator tadqiqotlarda ta'lidlanadi. Jumladan, C.Kramschga ko'ra, tilni mukammal bilish uchun uning madaniy fonini tushunish lozim.⁸ Ushbu aspekt ustida izlanishlar olib borgan S.G.Ter-Minasova lingvomadaniy kompetensiyani rivojlantirishda onomastik birliklarning ahamiyatini tahlil qilib, ularni lingvodidaktik vosita sifatida ishlatish zarurligini ko'rsatgan.⁹



1-rasm. Chet tillarni o'qitishning zamonaviy yondashuvlar

Dars jarayonida talabalarga badiiy asarlardagi ismlar va joy nomlarini berib, ularning madaniy va tarixiy ildizlarini tahlil qilish topshirig'i berish, mashhur asarlardagi onomastik birliklar orqali tarixiy-madaniy xulosalar chiqarish samarali ekanligi tajribas-inov ishlari davomida dalillandi. Shakesper asarlarida ingliz ismlarining tarixiy kelib chiqishini o'rganish yoki "Boburnoma"dagi joy nomlari orqali XVI asr geografiyasini tahlil qilish bunga misol bo'la oladi.

Kognitiv yondashuv inson tafakkuri va idrok jarayoni orqali onomastik birliklarning ma'nolarini shakllantirishga asoslangan. Onomastik birliklarni semantik jihatdan anglash va xotirada saqlashning kognitiv strategiyalari talabalarning tilni idrok etish qobiliyatini oshiradi. Tilshunos A.Vierzbicka onomastik birliklarning semantik maydonini o'rganib, ularni inson tafakkurining modellashtirilgan qismi sifatida tavsiflaydi.¹⁰ S.Baxtiyorov esa toponimik birliklarning lingvistik xotirani rivojlantirishda katta rol o'ynashini ta'kidlagan.¹¹

⁸ Kramsch C. Language and Culture. Oxford University Press, 1993. –P.23.

⁹ Ter-Minasova S.G. Yazyk i mezhkul'turnaya kommunikatsiya. Slovo, 2000. –S. 85.

¹⁰ Wierzbicka A. Understanding Cultures Through Their Key Words: English, Russian, Polish, German, and Japanese. Oxford University Press, 1996.

¹¹ Baxtiyorov S. Toponimik birliklarning lingvistik xotirani rivojlantirishdagi o'rni. –Toshkent: Fan, 2021. –B.351.

Interfaol ta'lim yondashuvi o'quvchilarni faol ishtirokchi sifatida shakllantirishga asoslanadi. Badiiy onomastik birliklarni munozaralar, rolli o'yinlar, loyihalar orqali tahlil qilish ularning anglash jarayonini kuchaytiradi. Bu borada to'xtalgan L.S.Vygotsky: "O'quv jarayoni ijtimoiy muloqot orqali amalga oshsa, undagi anglash darajasi yuqori bo'ladi"¹² – deb ta'kidlaydi. J.Devyu esa tanqidiy tafakkurni rivojlantirish uchun interfaol metodlardan foydalanishni tavsiya qiladi.¹³ Talabalarga loyihaviy topshiriqlar berish bunda qo'l keladi. Badiiy matn ichidagi onomastik birliklar xaritasini yaratish, shaxsiy ismlar evolyutsiyasi bo'yicha guruhli tadqiqotlar olib borish yoki rolli o'yinlar orqali onomastik birliklarning turli davrlarda ishlatilishini o'rganish shular jumlasidandir.

Kontekstual o'qitish yondashuvi deganda, badiiy onomastik birliklarning ma'nosini to'liq anglash uchun ularni kontekstda tahlil qilish zarurligi nazarda tutiladi. Matnning semantik va pragmatik jihatlarini kontekstda tahlil qilish lingvistik kompetensiyani kuchaytiradi. G.Brown., G.Yule kabi tadqiqotchilarga ko'ra, lingvistik birliklarning faqat kontekstdan kelib chiqib anglanadi.¹⁴ Boshqa tilshunoslar esa matnning kontekst bilan bog'liqligini lingvistikaning muhim elementi sifatida baholaydi.¹⁵ Buni dars jarayonida talabalarga badiiy asarlardan kontekstdagi onomastik birliklarni ajratish va ularni semantik jihatdan tahlil qilish vazifasini berish yoki film va teatr asarlarida ismlarning tarjima jarayonida qanday o'zgarishini kuzatish kabi vazifalarni berish orqali amalga oshirish mumkinligi tadqiqotimizda xulosalandi.

Shunday qilib, badiiy onomastik birliklar orqali lingvistik kompetensiyani rivojlantirishda lingvomadaniy, kognitiv, interfaol va kontekstual tamoyillar muhim rol o'ynaydi. Shunday bo'lsa-da, chet til ta'limida barcha til o'rganuvchilar yoki butun o'quv guruhi uchun yagona va universal metod mavjud emas. Shu sababli, qat'iy metodik yondashuvlar o'rniga, ta'lim oluvchilarga didaktik-metodik tamoyillar asosida o'qitish strategiyalarini moslashtirish imkonini beradigan yondashuv afzal ko'rilmogda. Bu esa ta'lim jarayonini ko'proq moslashuvchan, samarali va individual ehtiyojlarga mos keladigan tarzda tashkil etish imkoniyatini yaratadi.

ADABIYOTLAR RO'YXATI | СПИСОК ЛИТЕРАТУРЫ | REFERENCES

1. "Umumiy o'rta ta'limning davlat ta'lim standarti" O'zbekiston Respublikasi Xalq ta'limi vazirining 2021-yil 17- dekabrda 406-son buyrug'iga 1-ILOVA. https://drive.google.com/file/d/1PESxLJtLz4Nfid_KukzQh-FR5Fy7twPp/preview
2. Baxtiyorov S. Toponimik birliklarning lingvistik xotirani rivojlantirishdagi o'rni. – Toshkent: Fan, 2021. –B.351.
3. Brown G., Yule G. Discourse Analysis. Cambridge University Press, 2013. –p. 52.

¹² Vygotsky L.S. Mind in Society: The Development of Higher Psychological Processes. Harvard University Press, 2015.

¹³ Dewey J. How We Think: A Restatement of the Relation of Reflective Thinking to the Educative Process. D.C. Heath & Co., 2003.

¹⁴ Brown G., Yule G. Discourse Analysis. Cambridge University Press, 2013. –p. 52.

¹⁵ Halliday M.A.K., Hasan R. Cohesion in English. Longman, 1996.

4. Der Gemeinsame Europäische Referenzrahmen für Sprachen. Europarat, 2011. –S. 21.
5. Dewey J. How We Think: A Restatement of the Relation of Reflective Thinking to the Educative Process. D.C. Heath & Co., 2003.
6. Funk H. Methodische Konzepte für den DaF-Unterricht. // Deutsch als Fremd- und Zweitsprache. Ein internationales Handbuch. Art. 104. – Berlin/Wien: De Gruyter. – S. 940-952.
7. Grotjahn R., Kleppin K., Mohr I., & Ende K. DLL 6: Curriculare Vorgaben und Unterrichtsplanung. Klett Sprachen. 2014.
8. Halliday M.A.K., Hasan R. Cohesion in English. Longman, 1996.
9. https://europass.europa.eu/de/what-common-european-framework-languages-cefr?utm_source=chatgpt.com
10. Kramsch C. Language and Culture. Oxford University Press, 1993. –P.23.
11. O'zR VMning 2013-yildagi "Uzluksiz ta'lim tizimining chet tillar bo'yicha davlat ta'lim standartini tasdiqlash to'g'risida"gi 124-son qarori.
12. Ter-Minasova S.G. Yazyk i mezhkul'turnaya kommunikatsiya. Slovo, 2000. –S. 85.
13. Vygotsky L.S. Mind in Society: The Development of Higher Psychological Processes. Harvard University Press, 2015.
14. Wierzbicka A. Understanding Cultures Through Their Key Words: English, Russian, Polish, German, and Japanese. Oxford University Press, 1996.

MUALLIF HAQIDA MA'LUMOT [ИНФОРМАЦИЯ ОБ АВТОРЕ] [AUTHORS INFO]

✉ **Sanakulov Zayniddin Ibodullayevich**, PhD dotsent [**Санакулов Зайниддин Ибодуллаевич**, PhD доцент], [**Zayniddin I. Sanakulov**, PhD, Associate Professor]; manzil: Chirchiq shahri, Amir Temur ko'chasi, 104-uy, [адрес: город Чирчик, улица Амира Темура, дом 104], [address: Chirchik city, Amir Temur street, house 104]